



AVIATSIYA SOHASIDAGI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-fevral kuni aviatsiya sohasidagi davlat korxonalari transformatsiyasi bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda aviatsiya xizmatlari bozorida xususiy sektorga keng yo‘l ochildi. Aviakompaniyalar soni 15 taga, jumladan, xususiylari 10 taga yetdi. O‘tgan yilning o‘zida 28 ta yangi samolyot olib kelindi. Bularning natijasida oxirgi yetti yilda reyslar 2 barobar ko‘paygan. Samarqand aeroporti xususiy sheriklikka berilgani hisobiga yo‘lovchi oqimi 4 karra oshib, 1 millionga yetgan.

Shunga qaramasdan, o‘tgan yili aviatsiya xizmatlari hajmi bor-yo‘g‘i 11,6 foiz o‘sgan. Mamlakatimiz strategiyasida 2030-yilga qadar aviaqatnovlar sonini 4 karra oshirish rejalashtirilgan. Unga erishish uchun sohada yillik o‘shish sur‘atlari 20 foizdan kam bo‘lmasligi kerak.

Bu infratuzilma, boshqaruv, narx va sifat borasida tizimli ishlarni talab etadi. Yurtimizda aviachiptalar narxi nisbatan qimmat. Ham hududiy, ham xorijiy reyslar soni talabga qaraganda kam. Parvozlarning asosiy qismi haligacha Toshkent va Samarqand aeroportlariga to‘g‘ri keladi. Aeroportlarda havo kemalari va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari cheklangan, qo‘shimcha xizmatlardan daromad jami tushumning bor-yo‘g‘i 7 foizini tashkil qiladi. Toshkent, Navoiy, Namangan aeroportlari tranzit salohiyati to‘liq ishga solinmayapti.

Taqdimotda “Uzbekistan Airways” va “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyatlarida

transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish, xizmat turlari va daromadni ko‘paytirish bo‘yicha joriy yilgi rejaralar bayon qilindi.

Xususan, milliy aviakompaniyaga xalqaro kredit reytingini olib, uni “IPO”ga chiqarish jarayoni boshlanadi. Buxoro, Namangan, Urganch va Andijon aeroportlari xususiy boshqaruvga berilib, modernizatsiya qilinadi. Joriy yilda reyslar soni 20 foizga oshiriladi.

Sohada xarajatlarni 20 foizga qisqartirish choralari ko‘riladi. Yonilg‘i sarfi yuqori bo‘lgan eski samolyotlar sotilib, zamonaviy va tejamkor havo kemalari olib kelinadi. 72 ta yo‘nalish bo‘yicha optimal parvozlar marshrutini tanlash orqali yonilg‘i sarfi sezilarli kamaytiriladi. Foydalanilmayotgan va daromad keltirmayotgan aktivlar sotuvga chiqariladi.

Mutasaddilarga xarajatlarni qisqartirish dasturini tasdiqlab, xizmatlar raqobatdoshligini oshirish, xususiy sheriklik loyihalarini tezlashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Aeroportlarda qo‘shimcha xizmatlarni ko‘paytirish, Navoiy aeroportida samolyotlarga texnik xizmat ko‘rsatishni rivojlantirib, uning salohiyatini to‘liq ishga solish zarurligi ta’kidlandi.

Davlat aviakompaniyalariga xorijiy malakali mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, kadrlar tayyorlashni yaxshilash masalalari ham aytib o‘tildi.

O‘ZA

IT-XIZMATLAR EKSPORTINI OSHIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-fevral kuni IT-xizmatlar infratuzilmasi va eksportini rivojlantirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda o‘tgan yili 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligida bo‘lgan videoselektor yig‘ilishida topshiriq berilgan edi.

Hozirgi kunda IT-park rezidentlari soni 1 ming 700 taga yetib, ularda 26 ming nafar xodim faoliyat ko‘rsatmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida rezidentlar sonini 10 barobar oshirib, ulardagi ish o‘rinlarini 100 mingga yetkazish, sohada eksport hajmini 5 milliard dollarga olib chiqish belgilangan.

Shu maqsadda hududlarga IT-eksportchi tashkilotlarni keng jalb qilishga qaratilgan “Zero Risk” dasturini qo‘llash taklif etilmoqda. Bu dasturda ishtirok etuvchi korxonalarga IT-park tavsifanomasi asosida bo‘sh turgan davlat binolari 1-yilgacha muddatga tekin foydalanishga beriladi. Bu muddat tugagach, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuziladi. IT-park tomonidan texnika va jihozlar 1-yilgacha muddatga tekin foydalanishga beriladi.

Bu korxonalar faoliyatini rivojlantirishi uchun ham qator imtiyozlar nazarda tutilmoqda. Jumladan, ushbu dastur bo‘yicha korxonalarga xodimlarni

ishga olish va malakasini oshirish xarajatlari 50 foizgacha qoplab beriladi.

Mahalliy IT-kompaniyalarni xalqaro miqyosga olib chiqish bo‘yicha “Local to Global” loyihasi amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, mahalliy IT-kompaniyalarning jahon bozoriga chiqishi, xalqaro ko‘rgazmalarda qatnashishi, xorijiy ekspertlarni taklif etishda xarajatlarning 50 foizgacha qismi qoplab beriladi.

Taqdimotda “raqamli inklyuzivlik” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha ham axborot berildi. Yoshlar, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslarda IT-xizmatlar ko‘rsatish ko‘nimkalari shakllantiriladi. Natijada 9 mingga ish o‘rni yaratilishi, jumladan, 5 mingga yaqin ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligi ta‘minlanishi mo‘ljallangan.

Umuman, “raqamli inklyuzivlik” loyihasi natijasida 25 ming nafar shaxsni ish bilan ta‘minlash hisob-kitob qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma‘qullab, qo‘shimcha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

OLIY TA‘LIMNING JAMIYATDAGI MAS’ULIYATI QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Joriy yil 5-fevral kuni mamlakatimiz ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda bugunimiz va ertangi kunimizga daxldor muhim masalalar o‘rtaga tashlandi, asosli fikrlar bildirildi, tashabbuslar ilgari surildi. Dastlab so‘nggi kunlarda ro‘y bergan hodisalar, tinchlik va barqarorlikka tahdidlar xususida so‘z bordi. Davlatimiz rahbari bugungi chaqiriqlar va tahdidlar mohiyatini ochib, ma‘naviyat, vatanparvarlik, hushyorlikning ahamiyatini aniq-tiniq tushuntirib berdi.

Yig‘ilishda belgilangan vazifalar qatorida oliy ta‘lim mazmuni va standartlarini shablonli mezonlardan xoli tarzda xorijiy tajribaga asoslanib, yurtimizda yaratilayotgan zamonaviy industriya va texnologiyalar talabiga muvofiqlashtirish zarurati ko‘rsatildi. Ta‘limning o‘zgarigan va yangilanayotgan bosqichlari bilan oliy ta‘lim uzluksizligini mazmunan bog‘lab, mutlaqo yangi huquqiy bazada o‘zgarishlar amalga oshirish topshiriqlari berildi.

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida haqiqiy tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, dunyoning ilg‘or tajribalarini tatbiq etish vazifasi bundan yetti yil muqaddam, ya‘ni 2017-yildan e‘tiboran, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan belgilangan edi.

O‘tgan davr mobaynida oliy ta‘lim tizimini takomillashtirishga asos bo‘la oladigan o‘zgarishlar amalga oshdi. Bu vaqtda mazkur tizimning tashkiliy, tuzilmaviy va huquqiy asoslari yangilandi, yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi, akademik mustaqillik, oliy o‘quv yurtlarining huquqiy-tashkiliy turlari dunyo tajribasiga muvofiqlashib rivojlanishi kabi masalalar yechimini topa boshladi.

Davomi 5-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI “YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI”DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO‘G‘RISIDA

“O‘zbekiston — 2030” strategiya-sida belgilangan keng ko‘lamli islohot-larni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “ya-shil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslan-gan yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashti-rish maqsadida:

1. 2024-yil 1-martdan boshlab alo-hida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste‘dodli va iqtidorli yoshlar Mahal-lalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika ko-missiyasi qarori bilan “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta‘lim tashkilotlari rahbar-lariga biriktirilsin. Bunda mazkur rahbar-lar:

har oyda kamida bir marotaba o‘zlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo‘lgan kasb-hunar-ga o‘qitish orqali bandligini ta‘minlash, hayotda o‘z o‘rnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini yuk-saltirishga har tomonlama ko‘maklashib borsin;

o‘zlariga biriktirilgan yoshlar muammolarini hal qilish va salohi-yatini yuzaga chiqarish uchun te-gishli tashkilotning byudjetdan tashqari mablag‘lari va qonunchilik bilan taqqiqlan-magan boshqa manbalar hisobidan zarur mablag‘larni Vazirlar Mahkamasi to-monidan belgilanadigan tartib asosida yo‘naltirishga ruxsat etilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Mahallalarda yoshlar bilan ishlash ma-salalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha

respublika komissiyasi, Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa’dullayev) hamda yoshlar biriktirilgan vazirlik va idoralar belgi-lansin.

2. Yoshlarning salohiyati, iste‘dodi va tashabbuslarini to‘laqonli ro‘yobga chiqa-rish maqsadida “Besh tashabbus olim-piadasini” doirasida:

2024-yil 1-martdan boshlab ma-halla, ta‘lim muassasalari, korxo-na va tashkilotlar tizimida mukofot jamg‘armasi 600 million so‘m miqdorida xorijiy tillar (“Ibrat farzandlari”) bo‘yicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va “Zakovat” intellektual o‘yinlari yuqori saviyada tashkil etilsin;

Yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan kasblar tanlovida g‘olib bo‘lgan yoshlarni o‘z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobi-bidan ta‘minlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ul etib Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa’dullayev) belgilansin.

3. Yoshlar ishlari agentligi, Ekologi-ya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining ekologiya, sog‘lom turmushni targ‘ib qilish kabi ijtimoiy ahamiyatga molik 100 ta volontyor-lik loyihalari bo‘yicha birinchi bos-qichda bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha mablag‘ni tanlov asosida ajratish tartibini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

4. Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyat-larni yaratish maqsadida:

a) oilaviy tadbirkorlik dasturi doira-sida ajratilayotgan kreditlarning kami-da 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivo-jlantirishga yo‘naltirilsin;

b) 2024-yil 1-iyundan boshlab qay-dagilarni nazarda tutuvchi “Yosh tad-birkor” tanlovlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “mahalla — tuman — viloyat — respublika” bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g‘oyalari saralanadi. Bunda, nogironligi bo‘lgan yosh tadbirkorlarning loyiha va g‘oyalarga alohida e‘tibor qaratiladi; respublika bosqichida saralashdan o‘tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravarigacha miq-dordagi imtiyozli kreditlar ajratiladi;

g‘olib bo‘lgan biznes loyiha va g‘oyalarni egalari Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hi-sobidan xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuboriladi.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa’dullayev), Savdo-sanoat palatasi (D.Vaxobov) va O‘zbekiston nogironlar uyushmasi bel-gilansin.

5. 2024-yil 1-martdan boshlab “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” dasturi joriy etilsin.

Bunda, ushbu dastur doirasida: mahallalarda yoshlar yetakchilari to-monidan mahalla faollari ishtirokida ax-borot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasiga qiziquvchi yosh-lar aniqlanib, ularni ingliz va boshqa xorijiy tillarga o‘qitish hamda sertifi-katlar olishini tashkil etish, sertifikat olgan yoshlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni Raqamli texnologiyalar vazirligining maxsus axborot tizimiga kiritib borish amaliyoti joriy qilinishi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va band-lik vazirligi tomonidan maxsus axborot tizimiga kiritilgan yoshlarni IT sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga yo‘naltirish va ishga joylashtirishga ko‘maklashish choralari ko‘rilishi bel-gilansin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib O‘zbekiston mahallalari uyushmasi (K.Kurbanbayev), Yoshlar ishlari agentligi

(A.Sa’dullayev), Raqamli texnologi-yalar vazirligi (Sh.Shermatov) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari belgilansin.

6. 2024-yil 1-martdan boshlab: “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘larini yoshlarni chet tillari va kasb-hunarga o‘qitish maqsadlariga yo‘naltirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha “Ustoz” maxsus plat-formasi ishga tushirilsin va dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 250 ming nafar yoshlar qamrab olinishi ta‘minlansin;

yosh xotin-qizlarni tadbirkorlik, mar-кетин, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o‘rgatish uchun “Qizlar aka-demiyasi” platformasi ishga tushirilsin va bu orqali yosh xotin-qizlar uchun turli tanlov, loyihalar, o‘quv oromgohlari, stajirovkalar tashkil etilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B.Musayev), Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi (O.Parpiyoyeva) va Yoshlar ishlari agentli-gi (A.Sa’dullayev) belgilansin.

7. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish-niing asosiy omili sifatida biznes uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish maqsa-dida “Biznesni qo‘llab-quvvatlash das-turi” doirasida 2024-yil yakuniga qadar: kompleks qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali 2 mil-lion aholini biznesga jalb qilish; yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta‘minlash uchun zarur sharoitlar yaratilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ul etib Bosh vazir o‘rinbosari — J.Qo‘chqorov belgilansin.

8. 2024-yil 1-iyuldan boshlab nufuzli xalqaro brendlar bilan ishlash chiqarishni boshlayotgan korxonalarga:

Davomi 2-betda

Buyuk o‘zbek yo‘li

Prezidentimiz raisligida 2024-yil 20-fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ijtimoiy himoya milliy tizimini izchillik va samaradorlik bilan amalga oshirish borasidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Tanqidiy-tahliliy va amaliy ruhda o‘tgan ushbu yig‘ilish asnosida davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda ijtimoiy adolat va inson qadriini ta’minlaymiz desak, bu yangi tizimni joylarda samarali ishlatib, muhtoj insonlarga madad va umid bag‘ishlashimiz kerak”.

IJTIMOY HIMOYADA YANGI MILLIY TIZIM

Binobarin, mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy himoyaning inson qadriini ta‘minlashga tom ma’noda xizmat qiladigan yangi milliy tizimiga asos solindi. Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” monografiyasida adolati va kuchli ijtimoiy siyosatga asoslangan ushbu tizimning mazmun-mohiyati hamda imkoniyatlari keng ochib berilgan.

HUQUQIY ASOSLAR

Keyingi yillarda o‘ndan ortiq davlatning bu sohadagi amaliyoti va xalqaro tajriba chuqur o‘rganildi, ushbu ishga malakali milliy hamda xorijlik ekspertlar jalb qilindi. Tahlillar odamlar tashvishining ichiga kirmagan, o‘zidan o‘tkazmagan eski tizim tubdan o‘zgarishi kerakligini, o‘z navbatida, ijtimoiy himoyaning yangi milliy tizimini yaratish murakkab va qamrovdor jarayon ekanini ko‘rsatdi.

Shu ma’noda, ijtimoiy himoya milliy tizimini shakllantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgani juda muhim. Bu o‘rinda, avvalo, 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendumda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida O‘zbekiston — ijtimoiy davlat ekanini belgilab qo‘yilganini qayd etish lozim.

Bosh qonunimizning IX bobida barcha ijtimoiy huquqlar keng ochib berilgan. Xususan, Konstitutsiyaning qator moddalarida:

— mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta‘minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi;

— davlat fuqarolarning bandligini ta‘minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish choralariini ko‘rish;

— har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot huquqiga ega ekanligi;

— davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi kabi ijtimoiy huquqlar belgilab qo‘yilgan;

— mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo‘lishi belgilangan.

Bularning barchasi, o‘z navbatida, mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini yaqqol ko‘rsatdi. Shuning uchun davlatimiz rahbarining 2022-yil 25-iyuldagi

farmoni bilan sohaga oid 3 ta muhim hujjat — O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi; O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari; O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI

“YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI”DA

AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

xalqaro standartlarni joriy etish va ekologik sertifikatlash xarajatlarini qoplab berish tartibi joriy qilinсин;

uch yil davomida nufuzli xalqaro brend-lar ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun zarur bo‘lgan barcha xomashyolar mahalliylashtirish darajasini kamida 60 foiz-ga yetkazish sharti bilan bojxona bojidan ozod etilsin;

nufuzli xalqaro brendlardan jalb qilingan texnolog, dizayner, marketolog kabi mu-taassislardan O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomaga berilganligi uchun to‘lovlar undirilishi bekor qilinsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ul etib Savdo-sanoat palatasi (D.Vaxobov) hamda Investitsiyalar, sanoat va sav-do vazirligi (L.Qudratov) belgilansin.

9. 2024-yil 1-maydan boshlab fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun yangi maj-buriy to‘lovlar va yig‘imlarni faqatgina qo-nunda belgilash amaliyoti kiritilsin.

10. Keng jamoatchilik bilan muhokama-larda bildirilgan takliflar asosida ishlab chi-qligan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat das-turi (keyingi o‘rinlarda — Davlat dasturi) doirasida quyidagilar:

2024-yilga mo‘ljallangan yo‘nalishlar kesimidagi amaliy tadbirlar rejalari 1-5-ilovalarga muvofiq;

2024-yilga yo‘nalishlar kesimida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxatlari 6-10-ilovalarga muvo-fiq tasdiqlansin.

Bunda, yo‘nalishlar kesimida 2024-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–300-son qarori bilan tas-diqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

11. Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit-lar yaratish yo‘nalishi doirasida 2024-yilda:

Prezident va ixtisoslashtirilgan mak-tablarning bilimlarni baholash tizimi qo‘shimcha 1000 ta umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida joriy qilinib, fanlardagi amaliy mashg‘ulotlar ulushi 60 foizgacha os-hirilsin;

6,7 million nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida yurak-qon tomir, qandli diabet, o‘pkaning surunkali ob-struktiv kasalliklari xavfini aniqlash bo‘yicha profilaktik ko‘riklar tashkil etilsin;

7,5 ming nafar yoshlar zamonaviy kasb-larga o‘qitilishi, xalqaro imtihon tizimlari-da chet tillari bo‘yicha yuqori ball olgan 6 ming nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilishi ta‘minlansin;

10 million nafar aholini yugurish, futbol, voleybol, stol tennis, shaxmat, milliy va belbog‘li kurash kabi sport turlari bo‘yicha marafon va musobaqalarni tashkil etish orqali ommaviy sportga jalb qilish choralari ko‘rilsin;

2024-yilda Parij shahrida o‘tkaziladigan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida mu-vaffaqiyatli ishtirok etish uchun kamida 140 ta litsenziyani qo‘lga kiritish maqsadida 15 ta olimpiya va paralimpiya markazida ham-da Toshkent shahri, Andijon va Toshkent viloyatlaridagi 14 ta sport bazasida barcha zarur sharoitlar yaratilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib tegishincha Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (X.Umarova), Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B.Musayev), Yoshlar ish-lari agentligi (A.Sa‘dullayev), Sport vazirligi (A.Ikramov), O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi (O.Kasimov), O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi (M.Tashxodjayev) bel-gilansin.

12. Quyidagilar:

a) 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat-lar va Toshkent shahrining 1 tadan tumanida (shahrida) sinov tariqasida “Mening makta-bim” loyihasi amalga oshirilsin hamda buning doirasida Davlat byudjeti mablag‘lari hisobi-dan maktablarga bazaviy hisoblash miqdori-ning 150 barobariga mablag‘ ajratilib, ushbu

mablag‘ 5-11-sinf o‘quvchilari tanloviga ko‘ra, elektron doska, kompyuter, sport ji-hozlari, kitoblar kabi maktablar uchun zarur tovarlarga sarflanishi belgilansin;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari direk-torlarini menejerlik bo‘yicha sertifikat-siyalash tizimi joriy etilsin. Bunda, direktor-larga malakaviy talablar aniq belgilanib, ular har besh yilda bir marotaba attestatsi-yadan o‘tkazilsin;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab Maktab-gacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ona tili va adabiyot hamda tarix fanlari bo‘yicha Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuri-dagi Bilim va malakalarni baholash agentligi-ning milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan va ushbu fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo‘shimcha ustama to‘lanishi belgilansin;

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ul etib Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (X.Umarova) belgilansin.

13. 2024-yil 1-sentabrdan boshlab Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari-da tajriba-sinov tariqasida umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga olis hududlardan qat-naydigan o‘quvchilar uchun autsorsing asosida bepul avtobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Qashqadaryo viloyati hokimligi (M.Azimov) va Surxond-aryo viloyati hokimligi (U.Qosimov) belgi-lansin.

14. 2024-yil yakuniga qadar ehtiyojdan kelib chiqib, viloyatlar markazlari, shuning-dek, Toshkent va Nukus shaharlarida kamida bittadan og‘ir gematologik, onkologik va klinik immunologik kasalliklari bor bemor-larga palliativ yordam ko‘rsatuvchi xospis-lar tashkil etilsin.

Bunda, xospislarni tashkil etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va faoliyatiga doimiy ko‘maklashish loyihalari uchun Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat noti-jorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamo-at fondi tomonidan grantlar e‘lon qilib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

15. Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov):

a) 2024-yil 1-mayga qadar: 2025-yildan boshlab katta yoshdagi aholi orasida yuqumli bo‘lmagan kasalliklar xavfi-l omillarining tarqalganligini o‘rganish;

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (X.Umarova) bilan birgalikda 2026-yildan boshlab o‘tkaziladigan maktab o‘quvchilari orasida tamaki mahsulotlarini iste‘mol qi-lishning tarqalganlik hamda ularning psixo-logik holatini o‘rganish bo‘yicha rejani bel-gilasin;

b) 2024-yil 1-dekabrda qadar Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) bilan birgalikda Yagona interaktiv davlat xizmat-lari portali orqali sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sonini 17 tadan 24 taga yetkazsin va buning doirasida fuqarolarning onkologik, kardiologik va en-dokrinologik skriningdan o‘tishi natijasi, ular-ni davolash uchun ajratiladigan pullar to‘g‘risida ma‘lumot olish imkoniyatini yaratsin.

16. Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomil-lashtirish maqsadida:

2024-yilda nogironligi bo‘lgan shaxslarni zamonaviy protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilish texnik vositalari bil-an ta‘minlashning yangi tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinsin;

2024-yil 1-sentabrdan boshlab pen-siya tayinlashda bir vaqtning o‘zida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi pulni olish bilan bog‘liq ha-rakatlarni proaktiv tarzda amalga oshirish, nogironlikni belgilashda esa, nogironligi bo‘lgan shaxslarga beriladigan imtiyozlar to‘g‘risida xabardor qilish tartibi joriy etil-sin;

2024-yil 1-dekabrden boshlab yolg‘iz yashayotgan hamda yolg‘iz keksalar va nogi-ronligi bo‘lgan shaxslarga Toshkent shahrida

eksperiment tariqasida tegishli yo‘nalishdagi nodavlat tashkilotlar orqali Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag‘lari hisobidan ijti-moiy xizmatlar ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M.Olloyorov) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O.Fozilkarimov) belgilansin.

17. Og‘ir atletika bo‘yicha milliy sport maktabining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida 2024-yilda og‘ir atletika bo‘yicha barcha yosh toifasidagi sportchilar bilan in-dividual ishlash tizimini yaratish hamda ularni professional tayyorgarligini tashkil etish uchun Chirchiq shahrida Og‘ir atletika markazi tashkil etilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Sport vazirli-gi (A.Ikramov), O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi (O.Kasimov) belgilansin.

18. Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash yo‘nalishi doira-sida:

yalpi ichki mahsulot o‘sish sur‘ati 6 foiz-dan kam bo‘lmagan darajada bo‘lishini, in-vestitsiyalar esa yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan kamida 30 foiz bo‘lishini ta‘minlash choralari ko‘rilsin;

iqtisodiyot tarmoqlarida qiymati 18 mil-liard dollar bo‘lgan 309 ta yirik loyihalar ishga tushirilsin;

yillik inflyatsiya darajasi 9 foizgacha va fiskal taqchillik 4 foizgacha bo‘lishi ta‘minlansin, keyinchalik inflyatsiya va Dav-lat budjeti taqchilligi ko‘rsatkichlarini pasay-tirish choralari ko‘rilsin;

iqtisodiyot tarmoqlariga 275 trillion so‘m kredit resurslarini yo‘naltirish, shu jum-ladan, 41 trillion so‘mlik mikromoliya xiz-matlari ko‘rsatilishi ta‘minlansin;

banklar tomonidan taqdim etiladigan kredit stavkalarini bozor mexanizmlari asosida 2-3 foiz bandga pasaytirish uchun zarur sharoitlar yaratilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Bosh vazir o‘rinbosari — J.Qo‘chqorov va Markaziy bank (M.Nurmuratov) belgilansin.

19. 2024-yil 1-apreldan boshlab davlat investitsiya dasturlari doirasida markazlash-gan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan yirik loyihalarga sanoat kooperatsiyasi ta-lablari joriy etilsin.

Bunda, loyihalar doirasida mahalliy kor-xonalarda zarur mahsulotlarni o‘zlashtirish va xarid qilish tavsiya etiladigan mahsulot-lar ro‘yxati, mahalliy mutaxassislarni jalb qilish rejai va ularga qo‘yladigan talablar nazarda tutsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Investitsiya-lar, sanoat va savdo vazirligi (L.Qudratov) va Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B.Xodjayev) belgilansin.

20. Respublikada “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish uchun qulay sharoitlarni yaratish va “yashil energiya” manbalari salmog‘ini oshirish maqsadida:

a) 2024-yil 1-aprelga qadar: “yashil energiya” sertifikatlari aylanma-si bozor maydonillari asosida yo‘lga qo‘yilishi ta‘minlansin;

xalqaro issiqxona gazi savdosi bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi tasdiqlan-sin;

b) 2024-yil 1-apreldan boshlab iqish o‘zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV) va ma‘lumotlar bazasi bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilsin;

d) 2024-yil yakuniga qadar xorijiy inves-torlar ishtirokida Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Namangan va Navoiy viloyatlarida umumiy quvvati 2700 MVt bo‘lgan 6 ta yirik quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirish ta‘minlansin;

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov) va Energetika vazirligi (J.Mirzamaxmudov) belgilansin.

21. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A.Ortiqov) bir oy muddatda: uch oydan ortiq muddat mobaynida ochiq savdolarida sotilamagan davlat ak-tivlarining boshlang‘ich bahosini 50 foizgacha bosqichma-bosqich pasayti-rish;

yer uchastkalari olti oy davomida sotil-maganda to‘lovning 15 foizini uch oy mud-

datda, qolgan qismini 10-yil muddatda bo‘lib to‘lash imkoniyatini yaratish bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rsin.

22. 2024-yil 1-apreldan boshlab chegara bojxona postlarida meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini rasmiylashtirish bo‘yicha karantin, sanitariya-epidemi-ologiya osoyishtalik va veterinariya so-halaridagi nazorat funksiyalari bojxona xiz-mati organlariga o‘tkazilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ul etib Bojxona qo‘mitasi (A.Mavlonov) belgilansin.

23. Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatida ochiqlik darajasini keskin oshirish va korporativ boshqaruvni yanada ta-komillashtirish maqsadida 2024-yil 1-iyul-dan boshlab davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan yirik soliq to‘lovchilar kor-porativ ijtimoiy mas‘uliyat (CSR) hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) holati to‘g‘risida har yili 1-iyulga qad-ar hisobotni jamoatchilikka oshkor etish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B.Xodjayev) va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A.Ortiqov) belgilansin.

24. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar-ni qo‘llab-quvvatlash, eksport hajmini ko‘paytirish maqsadida O‘zbekiston Res-publikasi Prezidentining 2021-yil 20-ok-tabrdagi “Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5262-son qarorida nazarda tutilgan mahsulotlarga import bojxona bojining nol stavkasini qo‘llash muddati 2027-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi (A.Y.Xaydarov) va Bojxona qo‘mitasi (A.Mavlonov) belgilansin.

25. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi doira-sida:

2024-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarni ekish, respub-likada 444 ta yashil bog‘lar barpo etish;

2024-yil 1-martga qadar suv kanallarini rekonstruksiya qilish ishlariga Davlat bud-jetidan qo‘shimcha ajratilgan 500 milliard so‘m mablag‘lar doirasida kamida 1,5 ming kilometr yirik kanallarni betonlash ishlarini yakunlash choralari ko‘rilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib tegishincha Bosh vazir o‘rinbosari — A.Ramatov, Suv xo‘jaligi vazirligi (Sh.Xamrayev), Hisob pa-latasi (A.Boboyev) va Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov) belgilansin.

26. Mamlakatimizda chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va ularning salbiy oqibatla-rini yumshatish doirasida:

a) 2024-yil 1-martdan boshlab: hududlarda chang bo‘roni sodir bo‘layotganda va atmosfera havosida mayda dispers zarrachalari belgilangan normadan yuqori bo‘lganini aniqlanganda aholini ogoh-lantirish, yurak-qon tomir va nafas yo‘llari kasalliklariga chalingan hamda sog‘lig‘i ha-voaning ifloslanishiga ta’sirchanligi yuqori bo‘lgan boshqa fuqarolarni zarur profilaktik choralar to‘g‘risida doimiy xabardor qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

b) 2030-yilga qadar Toshkent va undan ortiq bo‘lgan qurilish maydonlarida, unga kirib-chiqish yo‘llarida chang va qum zarra-chalarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etish bo‘yicha majburiy talablar joriy etilsin; Toshkent shahrida yuk tashish uchun mo‘ljallangan, ruxsat etilgan to‘la vazni 10 tonnadan yuqori bo‘lgan N2, N3, O4 toi-faga kiruvchi avtotransport vositalarining harakati tig‘iz vaqt oraliklarida taqiqlansin. Bunda, ushbu cheklovlar maxsus xizmat, shu jumladan, kommunal xo‘jaligi, obodonlashti-rish va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yuk transporti vositalariga tatbiq etilmasligi belgilansin;

b) 2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida “EVRO — 5” va undan yuqori standartlariga muvo-fiq bo‘lmagan avtomashinalar ekspluatatsi-yasi bosqichma-bosqich cheklansin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib tegishin-cha Ekologiya, atrof-muhitni muho-

faza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (A.Abduxakimov), Sog‘liqni saqlash vazirli-gi (A.Xudayarov), Qurilish va uy-joy kom-munal xo‘jaligi vazirligi (B.Zakirov), Ichki ish-lar vazirligi (P.Bobojonov) va Transport vazirligi (I.Maxkamov) belgilansin.

27. Keng jamoatchilik vakillari va ekofaol-larning ekologiyaga avtomobillar chiqindi gazlarining zararli ta’sirini kamaytirish uchun Toshkent shahrida har oyning bir ish kuni davomida avtomobillar harakatlanishini (jamoat transportlari, maxsus va shoshilinch yordam xizmatlaridan tashqari) qisqartirishga qaratilgan “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

Bunda, binosi Toshkent shahrida joylash-gan barcha respublika va hududiy ijro etuv-chi hokimiyat organlarining rahbar va boshqa xodimlari jamoat transportida ish joyiga kelishi orqali namuna ko‘rsatib bor-sin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (A.Abduxakimov), Transport vazirligi (I.Maxkamov) va Tosh-kent shahar hokimligi (Sh.Umurzakov) bel-gilansin.

28. Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishi doirasida 2024-yil 1-mayga qadar:

adashgan yoshlarni jamiyatga integ-ratsiya qilish, ularning hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish maqsadida Yoshlar ittifoqi kafilligi asosida jazoni o‘tashdan mud-datidan ilgari shartli ozod qilingan yoshlarni probatsiya hisobidan chiqarish amaliyoti joriy etilsin va ularni profilaktik hisobga olish asoslari keskin qisqartirilsin;

yo‘li harakati qoidalarini buzilishi holati yuzasidan yuboriladigan qaror va xabarno-malar bo‘yicha Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga Yagona interaktiv davlat xizmat-lari portali orqali elektron murojaat qilish imkoniyati yaratilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Ichki ish-lar vazirligi (P.Bobojonov), Yoshlar ish-lari agentligi (A.Sa‘dullayev) va Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) bel-gilansin.

29. Mahallani jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasidagi tayanch bo‘g‘inga aylantirish maqsadida:

2024-yil 1-apreldan boshlab “Tashab-busli budget” doirasidagi loyihalarni tashab-buskorlar, mahalla raisi va faollarining ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyin-gina foydalanishga qabul qilish tartibi joriy etilsin;

2024-yil 1-avgustga qadar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga “Tashab-busli budget” doirasida amalga oshirilayot-gan loyihalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlaridan ma‘lumotlar olish, mablag‘larning o‘z vaqtida va to‘liq ajra-tilishini talab qilish hamda loyihalar amalga oshirilishini jamoatchilik tomonidan mo-nitoring qilish imkoniyati yaratilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Iqtisodiyot va moliya vazirligi (A.Y.Xaydarov) va O‘zbekiston mahallalari uyushmasi (K.Kuranbayev) belgilansin.

30. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat budjeti va mahalliy budgetlar daromadlari hamda amalga oshirilgan va rejalashtirila-yotgan xarajatlar bo‘yicha moliyaviy huj-jatlarga asoslangan yillik va yarim yillik hi-sobotlarni aholi e’tiboriga tushunish uchun oson usulda o‘z rasmiy veb-saytida e‘lon qilib borish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin.

31. “Xavfsiz va tinchlikevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha Qurolli Kuchlar, sohaga mas‘ul boshqa vazirlik va idoralarning kiberxavfsizlik hamda epide-miologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha salohiyatini keskin oshirish maqsadida:

kiberxavfsizlik infratuzilmasining muhim elementlari hisoblanuvchi axborot tizimlari attestatsiyasi va ekspertizasi uchun har bir

vazirlik va idorada mas‘ul shaxslar javob-garligi belgilansin;

mazkur yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlari va o‘qitish meto-dikalarini zamonaviy tahdid va tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirish cho-ralari ko‘rib borilsin;

mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirish, mas‘ul idoralarni zamonaviy texnika va tibbiyot apparaturalari bilan bosqichma-bosqich ta‘minlash dasturi amalga oshiril-sin;

fuqarolar shaxsiy ma‘lumotlarining himoyasini kafolatli ta‘minlash bo‘yicha, shuningdek, bank va to‘lov tizimlari uchun fribgarlikka qarshi va zamonaviy biometrik tizimlar joriy etilsin.

Mazkur bandning to‘liq, sifatli va so‘zsiz bajarilishi uchun mas‘ullar etib Mudofaa vazirligi (B.Kurbanov), Ichki ishlar vazirli-gi (P.Bobojonov), Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) va Markaziy bank (N.Sa‘dullayev) belgilansin.

32. Quyidagilar: Strategik islohotlar agentligi Adliya vazirligi, Hisob palatasi bilan birgalikda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy tadbirlar rejalari bajarilishini, maqsadli ko‘rsatkichlarga erishi-lishini va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilishini tizimli moni-to-ring qilib borsin;

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakati Davlat dasturining amalga oshirilishini, shu jumladan, joylarga chiqib, jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda tanqidiy o‘rganib borsin va natijalari bo‘yicha har oyda O‘zbekiston Respublika-si Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritisin.

Davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organ-lari “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakatining mazkur band ijrosi bo‘yicha faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashib borsin.

33. Vazirlar Mahkamasi:

har oy yakuni bo‘yicha Davlat das-turi ijrosi yuzasidan ma‘lumotlarni umum-lashtirib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritib borsin;

har chorak yakuni bo‘yicha Davlat das-turida yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarilishini Vazirlar Mah-kamasining Rayosati yig‘ilishida muhokama qilib borsin;

har yarim yilda Davlat dasturi ijrosi yu-zasidan hisobotlarni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritib borsin.

34. Axborot va ommaviy kommunikatsi-yalar agentligi (A.Xodjayev), O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A.Djurabayev) va O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (A.Ko‘chimov) ommaviy axborot vositalari bil-an birgalikda muntazam ravishda:

“O‘zbekiston — 2030” strategiya-sini 2024-yilda amalga oshirish natijalari ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning maz-mun-mohiyati jamoatchilikka tushuntiril-ishini;

“O‘zbekiston — 2030” strategiya-si doirasida amalga oshirilayot



Buyuk o‘zbek yo‘li

IJTIMOIY HIMOYADA YANGI MILLIY TIZIM

UNING HUQUQIY, TASHKILIY VA
MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI

Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson
huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori

Boshlanishi 1-betda

Shu asosda mamlakatimiz aholisini ijtimoiy himoya qilishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi:

— ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish;

— majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish;

— aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

— nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta‘minlash;

— aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta‘minlash;

— ijtimoiy xizmatlarni aholiga bevosita mahalla darajasida ko‘rsatish amaliyotini joriy etish.

Shuning uchun o‘tgan qisqa davrda ijtimoiy siyosat yo‘nalishida qabul qilingan qonunlar soni ikki barobar ko‘paydi. Bu borada 1992-2016-yillarda 24 ta qonun qabul qilingan bo‘lsa, 2017-2024-yillarda ayni ko‘rsatkich 44 tani tashkil etmoqda.

Yangi qonunlar ijtimoiy siyosatning turli sohalarga taalluqlidir. Xususan, oxirgi yetti yilda mehnatni muhofaza qilish va aholining bandligi sohasida — 11 ta, ijtimoiy ta‘minot va himoya sohasida — 9 ta, sog‘liqni saqlash sohasida — 12 ta, ta‘lim sohasida — 8 ta qonun qabul qilingan.

Yurtimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ana shu qamrovdor huquqiy asosga tayangan holda muntazam takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy himoya sohasiga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish va qo‘shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

TASHKILIY ASOSLAR

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan “ijtimoiy davlat” tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish davr talabiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgani xudrida shu dozalab talabga nisbatan o‘ziga xos hozirjavoblik ifodasi bo‘ldi.

Ushbu agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi’dur. Prezidentimiz 2023-yil 1-iyunda qabul qilgan “Aholiga sifatlari ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon bilan agentlikning:

— aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida davlat siyosati va chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

— nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish;

— voyaga yetmagan bolalarni, ayollarni himoya qilish tizimini takomillashtirish;

— yoshlar, yakka-yolg‘iz keksalar va og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash;

— ijtimoiy ta‘minot dasturlarini yuritish kabi asosiy faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28 sentabrda “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida esa ijtimoiy himoyani mahalla darajasida

“Ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 ta xizmat qamrab olingan bo‘lsa-da, mahalladagi aholi ularning yarmidan ham bexabar. Masalan, nogironligi bor farzandini parvarishlash nafaqasini olishi mumkin bo‘lgan 33 ming ota-ona ushbu imtiyozdan foydalanmayapti”.

IJTIMOIY HIMOYA MILLIY TIZIMI
VA PARLAMENT NAZORATI

Milliy parlamentimizning ijtimoiy himoya tizimida tutgan o‘rni va ahamiyatini ikkita yo‘nalishdagi faoliyati bilan baholash mumkin. Birinchi yo‘nalish ijtimoiy sohadagi keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, ya‘ni qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishdan iborat bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish sohaga oid qonunlar ustidan parlament nazoratini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Oliy Majlis palatalari ijtimoiy soha bo‘yicha ishlab chiqqan, qabul qilgan va ma‘qullagan qonunlar soni keyingi yillarda keskin ortgani haqida yuqorida to‘xtaldik. Ayni sohada qonun ijodkorligi jarayonlari uzviy davom etmoqda.

Bunga bitta misol: Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi hamda Senatga yuborildi. Mazkur qonunda ham ijtimoiy himoya nuqtayi nazaridan bir qator yangiliklar va imkoniyatlar mustahkamlangan.

Xo‘sh, qonundagi asosiy yangiliklar nimalardan iborat?

Birinchidan, ushbu qonun bilan “Ijara to‘g‘risida”gi qonunga ijarachining nogiron bo‘lib qolganligi ijara shartnomasini tugatish uchun asos bo‘lishini bekor qilishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Ikkinchidan, “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunda pensionerga hisoblangan, lekin uning tomonidan talab qilib olinmagan pensiya summasini to‘lash muddatini o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha uzaytirish, shuningdek, fuqarolarning pensiya tayinlash uchun Adliya vazirligi davlat xizmatlari



jamg‘armasi tomonidan Xalq bankiga axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladigan ma‘lumotlar fuqaroning pensiya to‘lovlarini olishi uchun asos bo‘lishini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Mazkur qonun yangi O‘zbekistonning ijtimoiy davlat prinsipini amalga oshirishga qaratilgan. U kuchga kirgach, albatta, pensionerlarning moddiy farovonligini yanada yuksaltirish, fuqarolarning elektron hisobga olish tizimini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijara munosabatlariga oid huquqlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Parlament nazorati masalasiga kelsak, Qonunchilik palatasi tomonidan birgina 2023-yilda o‘tkazilgan 20 ta “Parlament eshituvi”ning 8 tasi bevosita ijtimoiy himoyaga oid qonunchilik ijrosi holati tahliliga bag‘ishlandi. O‘tgan yilda, shuningdek, sohaga taalluqli masalalar yuzasidan 15 ta “Parlament so‘rovi”, 8 ta “Hukumat soati” tadbirlari amalga oshirilgan.

Qonunchilik palatasi deputatlari 2020-2023-yillarda davlat organlarining mansabdor shaxslariga 1244 ta “deputat so‘rovi” yuborgan bo‘lsa, shundan 513 tasi ijtimoiy soha muammolariga tegishlidir. Shu muddat davomida xalq noiblarining saylov okruglaridagi uchrashuvlari asnosida aholi tomonidan ijtimoiy sohaga oid 18 ming 689 ta masala ko‘tarilgan va shundan 8616 tasi ijobiy hal etilgan.

IJTIMOIY HIMOYA ADOLATLI
BO‘LISHI UCHUN ADOLATLI
MONITORING MUHIMI!

Prezidentimiz yig‘ilishda ijtimoiy himoya sohasida umumiy yondashuv o‘zini oqlamagan. har bir oila va inson taqdiriga alohida professional yondashish lozimligini qayd etib, ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash masalalarini ham atrofiyicha tahlil qildi. O‘zbekiston 2021-yilda BMTning Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shilgani tarixiy voqea bo‘lgani va undagi majburiyatlarini bajarish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotgani e‘tirof etildi.

Afsuski, eski ijtimoiy himoya tizimida odamlarga umid berish, hayotini yaxshilashi, band bo‘lishiga ko‘maklashish eng oxirgi o‘ringa tushib qolgan ekan. Ushbu soha 30 yil oldingi tizimda qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug‘ullangan. Bunday nomaqbul yondashuv ayrim odamlarni o‘zini o‘nglab olishga emas, yordam kutib yashashga, boqimandlikka o‘rgatib qo‘ygan. Misol uchun, mehnatga layoqatli kishilarga ham nafaqa to‘lab kelingan. Nogironligi borlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, kasbga o‘rgatish orqali hayotga qaytarishga yetarlicha e‘tibor berilmagan.

Shu bilan birga, viloyat va tuman hokimlari ushbu shaxslarga yordam berish, ularning uyushmalari va tashkilotlari bilan muloqot qilish, sharoit yaratish bilan yetarlicha shug‘ullanmayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Yig‘ilishda, shuningdek, ota-ona mehrija muhtoj bolalarga g‘amxo‘rlik masalalari ko‘rib chiqildi. Bugungi kunda ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik uchun keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Shunga qaramay, quyi bo‘g‘indagi e‘tiborsizlik oqibatida joylarda qarovsiz qolib ketgan bolalar aniqlanayotgani qayd etildi. Hozir ularga vasiylik belgilanmoqda. Ota-onasi migratsiyada bo‘lgan, noqulay ijtimoiy muhitdagi oilalarda tarbiyalanayotgan, ruhiy-jismoniy rivojlanishida muammosi bor bolalarga yordam tizimini takomillashtirish zarur.

Davlatimiz rahbari ota-ona mehrija muhtoj bolalarni tarbiyalash bo‘yicha bir qator vazifalarni kun tartibiga qo‘ydi. Xususan, endi joylarda vasiylik va homiylik masalalari, ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalar bilan mahalladagi ijtimoiy xodimlar shug‘ullanadi. Buning uchun hokimliklar huzuridagi Vasiylik va homiylik komissiyalari tugatilib, 1-avgustdan ularning vakolati “Inson” markazlariga o‘tkaziladi.

Yetim va nazoratsiz qolgan bolalarni qaramoqqa olish bo‘yicha “ixtisoslashgan tizim” tizimi joriy etiladi. Ixtisoslashgan 160 ta ta‘lim muassasasida bosqichma-bosqich “g‘amxo‘rlik” guruhlari tashkil qilinadi.

Ota-onasidan ayrilgan yigit-qizlarga ko‘maklashish tizimi ham o‘zgaradi. Endi “Yoshlarga hamrohlik” dasturi asosida ularni qo‘llab-quvvatlash 23 yoshgacha etib belgilanadi. Ichki ishlar tizimidagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari “Hayot maktabi” sifatida qayta tashkil qilinadi. Ular tarbiyasi og‘ir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo‘yicha kompleks xizmat ko‘rsatadigan maskanga aylantiriladi.

MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLAR

Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YAIMga nisbatan 2 barobar oshib, kam ta‘minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobar ko‘paydi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalarning parvarishi bilan band bo‘lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

Joriy yil 1-iyundan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi o‘zgaradi. Bunda ehtiyojmand toifani aniqlash bo‘yicha mezonlar ishlab chiqiladi va ularning aynan qanday yordamga muhtojligi aniq belgilab beriladi.

Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimizning 2023-yil 27-dekabrda “O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga alohida to‘xtalish lozim. Qaror bilan o‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Jumladan, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni aniqlash tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamlashtirish; ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etib, qamrovni kengaytirish; o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar salomatligi va turmush sifatini yaxshilash orqali ularning ijtimoiylashuvini ta‘minlash; ijtimoiy himoya tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish; yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy ahvolidan kelib

chiqib tabaqalashtirilgan ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimini joriy etish.

E‘tibor bering, davlatimiz rahbarining ijtimoiy sohaga taalluqli chiqishlari, farmon va qarorlarida ijtimoiy himoya tizimida xususiy sektor, fuqarolik jamiyati, xususan, mahalla tizimi ishtirokini kengaytirishga qayta-qayta urg‘u berilgani bejiz emas. Chunki ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand aholi uchun aynan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, xususan, mahallalar eng yaqin yelkadosh tizimlar hisoblanadi.

Shu ma’noda, davlatimiz rahbari Ijtimoiy himoya milliy agentligiga viloyat hokimlari bilan birga barcha mahallalarda ijtimoiy xodimlar faoliyatini tashkil qilishni topshirgani ayni muddaodir. Shuningdek, protez vositalarini berish, nafaqa va qarovsiz qolgan bolalarga vasiyliqni rasmiylashtirish, o‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalarni yolg‘iz deb e‘tirof etish kabi 49 ta ijtimoiy xizmat mahallagacha tushirilishi belgilandi. Mahallada ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish elektron platformasi ham ishlab chiqiladigan bo‘ldi.

Biz Prezidentimiz tashabbusi asosida ishlab chiqilgan hamda amaliyotga tatbiq etilayotgan mutlaqo yangi Ijtimoiy himoya milliy tizimining bir qator xususiyatlariga muxtasar to‘xtaldik. Bu haqda so‘z borganda, shuningdek, sohada teran islohotlar haqida axborot-tushuntirish ishlarini yanada kuchaytirish zarurligini unutmazlik kerak.

Ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand yurtdoshlarimiz o‘zlariga qanday qulaylik va yengilliklar yaratilganidan ko‘pincha xabarsiz qolmoqda. Buning isboti sifatida davlatimiz rahbari nuqtida keltirilgan mana bu dalil va raqamlarga e‘tiboringizni qaratamiz:

“Ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 ta xizmat qamrab olingan bo‘lsa-da, mahalladagi aholi ularning yarmidan ham bexabar. Masalan, nogironligi bor farzandini parvarishlash nafaqasini olishi mumkin bo‘lgan 33 ming ota-ona ushbu imtiyozdan foydalanmayapti”.

Buning uchun tizimdagi savodsizlikka tez fursatlarda barham berish, barcha davlat idoralari saytlarini nogironligi bo‘lgan insonlar uchun qulay shaklga keltirish, nogironligi bo‘lgan insonlar hayoti va erishgan yutuqlari to‘g‘risida ta’sirchan mediakontent, filmlar tayyorlash, telekanallarda informatsion, ayniqsa, bolalar dasturlari efrining muayyan qismini surdostarjima, subtitr yoki “yuguruvchi satr” bilan namoyish etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlar qalbida o‘ziga ishonch va qat’iyat tuyg‘usini oshiradigan adolatiy asarlar yaratish, ma’naviyat va ma’rifat tizimida ayni sohada tushuntirish-targ‘ibot ishlariga tubdan yangicha yondashish taqozo etiladi.

Yangi ijtimoiy himoya milliy tizimining yana bir o‘ziga xos xususiyati sohada g‘amxo‘rlik va xalqaro hamkorlik samaralariga bevosita taalluqlidir. Bu fikrimizni joriy yil 6-7-fevral kunlari Qatarning Doha shahrida bo‘lib o‘tgan “Inson huquqlari nuqtayi nazarida oziq-ovqat adolati: voqelik va kelajak muammolari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilari xalqimiz, davlatimiz, Prezidentimiz O‘zbekistonda va butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish va har bir insonning adolatiy asosdagi ijtimoiy himoyaga bo‘lgan huquqi amalga oshirilishini ta‘minlashga sodiq ekanini e‘tirof etgani ham yaqqol tasdiqlaydi.



Bugunning gapi

Mutaxassislar fikricha, inflyatsiya tovarlar va xizmatlar narxi oʻsib, aholi daromadi kamayib borishigina emas, balki keng maʼnodagi iqtisodiy jarayon hamdir. Bunda iqtisodiyotdagi talab va taklif muvozanati buzilishi, ularga taʼsir koʻrsatuvchi omillarning keskin oʻzgarishi natijasida pulning xarid qobiliyati pasayishi ham kuzatiladi.

INFLYATSIYA PASAYDI, XARAJATLAR-CHI?

Mamlakatimizda joriy yilning yanvar oyida inflyatsiya darajasi 0,6 foizni, yillik koʻrsatkich 8,6 foizni tashkil etdi. Bu dastlabki oyda oʻtgan yilning dekabr oyiga nisbatan yillik inflyatsiya 0,2 foiz pasayganini anglatadi. Soʻnggi marta bunday past koʻrsatkich bundan sakkiz yil oldin — 2016-yil avgust oyida qayd etilgan. Uning aksi oʻlaroq, 2023-yildagi eng yuqori inflyatsiya darajasi aynan yanvar va fevral oylarida kuzatilgan va 12,2 foiz oshgan edi.

Statistika agentligi maʼlumotiga koʻra, oʻtgan oyda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 0,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari 0,4 foiz, xizmatlar narxi 0,9 foiz oʻsgan.

Benzin 3,4 foiz (yillik +23,3 foiz), propan 4,8 foiz (yillik +34,3 foiz) qimmatlagan, metan narxida oʻzgarish boʻlmagan (yillik oʻsish +22,4 foiz).

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Abdurahmat Boymurodovning eʼtirof etishicha, mamlakatimiz iqtisodiyotida inflyatsion jarayonlar yuzaga kelishi va saqlanib qolayotgani yuqori talab sharoitlariga ayrim taklif komponentlari toʻliq moslasha olmayotgani bilan izohlanadi. Bundan tashqari, soʻnggi soʻrovlar natijalariga koʻra, sezilgan inflyatsiya va kutilmalari yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Markaziy bank boshqaruvi 2024-yil 25-yanvardagi yigʻilishida iqtisodiyotdagi yuqori talab dinamikasi taʼsirida shakllanayotgan kutilmalarni inobatga olgan holda asosiy stavkani yillik 14 foiz darajasida oʻzgarishsiz qoldirdi. Yangilangan prognozlariga koʻra, asosiy ssenariy boʻyicha joriy yilda umumiy inflyatsiya 8-9 foiz, bazaviy inflyatsiya darajasi esa 7-8 foiz atrofida shakllanishi kutilmoqda.

Makroiqtisodiy rivojlanishning qaysi ssenariy shartlari asosida kechishi tashqi iqtisodiy omillar bilan birga makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlashning ichki yoʻnalishlari, yaʼni tarkibiy islohotlar surʼati, fiskal intizom va pul-kredit siyosati taʼsirchanligiga bogʻliq boʻladi. Shakllantirilayotgan pul-kredit sharoitlari

inflyatsiyani 5 foizlik target darajasigacha barqaror pasayish trayektoriyasini taʼminlashga qaratilgan. Ushbu maqsadga 2025-yilning ikkinchi yarmida erishish moʻljallanmoqda. “2024-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budgeti toʻgʻrisida”gi qonunga muvofiq, inflyatsiya 2024-yilda 8-10 foiz, 2025-yilda 7,5-8,5 foiz, 2026-yilda 5,7 foiz boʻlishi nazarda tutilgan.

Umumiy inflyatsiya soʻnggi oylarda 8,8 foiz darajasida saqlanib kelyapti. Isteʼmol savatidagi tovarlar guruhida inflyatsiya pasayishiga qaramay, xizmatlar sohasida bir oz tezlashdi.

Yana bir jihati, importga talab yuqori sohalarga (xususan, avtokreditlar va maishiy texnika uchun ajratilayotgan isteʼmol kreditlari) milliy valyutadagi kreditlar ajratilishi keyinchalik ichki bozorda talabni oshirish orqali almashuv kursiga bosim yaratishi bilan birga, bank tizimida likvidlik xatarini yuzaga keltirishi mumkin.

Oʻz navbatida, almashuv kursida yuzaga kelgan bosim soʻm qadrsizlanishining “oʻtuvchi taʼsiri” (pass-through) orqali iqtisodiyotdagi inflyatsiya koʻrsatkichlari oʻsishiga sabab boʻladi. Shu tufayli Markaziy bank pul-kredit siyosati yuritishda moliyaviy barqarorlikka boʻlgan xatarlarning narxlar



barqarorligi boʻyicha risklarga aylanishining oldini olishda taʼsirchan choralarni koʻrishga alohida eʼtibor qaratishi kutilyapti.

Xalqaro valyuta jamgʻarmasi (XVJ) missiyasining oʻtgan yil 11-19-dekabr kunlari Toshkentga tashrifi yakunlari boʻyicha Oʻzbekistonning 2024-yilda iqtisodiy rivojlanish istiqbollarining ustuvor yoʻnalishlariga doir taqdimotida Oʻzbekiston iqtisodiyoti “soʻnggi global chaqiriqlarga nisbatan favqulodda chidamlilik”ni namoyish etayotgani qayd etildi. Missiya rahbari Yosir Abdhning soʻzlariga koʻra, inflyatsiyani



yanada pasaytirishni taʼminlash uchun pul-kredit siyosati barqaror boʻlishi kerak.

Missiya Markaziy bankning inflyatsiya maqsadli darajagacha (5 foiz) sekinlashgunga qadar qatʼiy pul-kredit siyosatini saqlab qolishga, bazaviy inflyatsiya kutilmaganda oʻsa boshlasa, asosiy stavkani oshirish faoliyatini ijobiy baholadi.

Jahon iqtisodiyotidagi qatʼiy moliyaviy sharoitlar, mehnat bozorlari muvozanatlashishi va xom-ashyo tovarlari narxining pasayuvchi dinamikasi taʼsirida global inflyatsiya joriy yilda ham sekinlashishi kutilmoqda. Savdo hamkorlardagi joriy iqtisodiy tendensiyalar va kutilmalarni inobatga olib, kelgusi oylarda soʻmning real almashuv kursiga

kelmoqda. Xususan, 2023-yilda konsolidatsiyalashgan budget taqchilligining cheklangan miqdori 3 foiz etib belgilangan boʻlsa-da, amalda 5,5 foizgacha oʻsgan edi.

“2024-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budgeti toʻgʻrisida”gi qonunga muvofiq, joriy yilda konsolidatsiyalashgan budget daromadlari prognozi 375 trillion soʻm, xarajatlari prognozi 427,5 trillion soʻm miqdorida, yaʼni umumiy fiskal balansi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz miqdorda taqchillik bilan rejalashtirilgan. Bu jahon iqtisodiyotidagi noaniqliklar va geosiyosiy vaziyatning mamlakatimiz iqtisodiyotiga taʼsirini yumshatish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini davlat tomonidan qoʻllab-

preferensiyalarini bekor qilish orqali taqchillik miqdorini bosqichma-bosqich pasaytirib borish zarur boʻladi.

XVJ missiyasi fikricha, hukumat konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz, 2025-yilda esa 3 foiz kamaytirish boʻyicha tegishli choralarni koʻrishni potensial shoklarga reaksiya qaytarish uchun budgetning zaxira buferlarini qayta tiklashga va inflyatsiyani kamaytirishga yordam beradi. Inflyatsiyani kamaytirish esa, ayniqsa, aholining kambagʻal qatlamiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Abdurauf QORJOVOV,
sharhlovchi

yoʻlini toʻsmasligi, chala koʻrilishi yoki qayta murojaat qilinishiga sabab boʻlmisligi kerak.

Tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, u yoki bu darajadagi sustkashliklarga kadrlarning tashkilotchilik qobiliyati, tajribasi va malakasi yetarli emasligi asosiy sabab boʻlmoqda. Qolaversa, murojaatlarni chuqur oʻrganigan holda mualliflarga mazmunan va huquqiy asoslangan javob xatleri yuborilmisligi, aksariyat hollarda murojaatchi shikoyat qilgan idoraning oʻziga ijro uchun topshirilishi, ariza va shikoyatlarda koʻrsatilgan holatlar muallif ishtirokida oʻrganilmayotgani, belgilangan muddatlarda javob berilmisligi takroriy murojaatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish uchun esa mutasaddi xodimlar oʻz zimmasiga yuklangan masʼuliyatli ishga yuksak bilim va yetarli tajriba bilan yondashishi lozim. Ular oʻzlariga berilgan huquq va imkoniyatlardan samarali foydalanib ish yuritisa, aholining haqli eʼtirofiga sazovor boʻladi. Masalaning eng muhim jihati, muammo kelib chiqishini kutib oʻtirmay, oldini olishdir. Shundagina ish kutilgan darajada muvaffaqiyatli boʻladi.

Hech bir muammo oʻz-oʻzidan vujudga kelmaydi. U yillar davomidagi eʼtiborsizlik tufayli paydo boʻladi. Shuning uchun ham shikoyatlar kelib tushmasidan avval ularning oldini olish zarur. Buning uchun tashkilot va idoralarida fuqarolar qabuli jadvaliga qatʼiy rioya qilinishi, yechimi ogʻir masalalar joyiga chiqib oʻrganilishi, adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda huquqiy targʻibot ishlari olib borilishi kerak.

Aytish joizki, bugun mahallalarda ham aholi murojaatlari bilan ishlash borasida katta imkoniyat yaratildi. Mahalla idoralarida fuqarolar takliflari, murojaatlari yuzasidan Xalq qabulxonalarini bilan hamkorlikda alohida kitob yuritilayotgani maqsadga muvofiq. Yangi tizim — mahalla yetitilgi, sektorlar faoliyati mutanosiblikda bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi muqarrar.

Tohir MULLAJONOV,
Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining Toshkent shahridagi
Xalq qabulxonasi mudiri

XALQ BILAN MULOQOT

MUROJAATLAR KOʻP, DEMAK...

Shikoyatlarni kamaytirishning eng samarali yoʻli – muammolarning oldini olish

Tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, qaysi sohada murojaatlar yechim topmayotgan boʻlsa, oʻsha sohada ommaviy va sayyor qabullar koʻpaytirilgani yaxshi bermoqda. Shuning uchun ham oʻtgan yili poytaxtda turli vazirlik va idoralarning oʻndan ortiq qabullari tashkil etilib, ularda koʻplab muammolar hal etildi.

Prezidentimizning 2019-yil 2-apreldagi “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni asosida murojaatlar bilan ishlash, aholi muammolarini aniqlash va hal etishda “Mahalla — sektor — xalq qabulxonasi — mahalla” prinsipi asosida hamkorlik yoʻlga qoʻyilgani ijobiy natija koʻrsatmoqda. Oʻtgan yili Toshkent shahrida 575 ta mahalla fuqarolar yigʻinida tashkil etilgan sayyor qabullarda 13 mingdan ortiq muammo aniqlanib, ularning 12 mingdan ziyodi mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda ijobiy hal etildi. Shuningdek, ancha murakkab, katta mablagʻ va vaqt talab etadigan masalalar tuman hokimliklarining tadbirlar rejasiga kiritildi.

Shu oʻrinda oʻtgan yili hokimlik, sud idoralari va sogʻliqni saqlash tizimiga oid murojaatlar soni odamlar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqotlar tufayli ancha kamayganini alohida qayd etish lozim.

Bugungi kunda hududlarda sharoitlarni yaxshilash maqsadida uylar taʼmirlanayotgani, ichki yoʻllar asfaltlanayotgani, bolalar

maydonchalari, “Workout”lar barpo etilayotgani, elektr energiyasi, suv taʼminoti tarmoqlari yangilanayotganida ham Xalq qabulxonalarining munosib hissasi bor. Bu haqda koʻplab misollar keltirish mumkin.

Masalan, Chilonzor koʻchasida joylashgan 81-uy aholisi koʻp yillardan buyon uning tom qismi yaroqsiz holga kelib qolgani, yertoʻladagi quvurlarning muddati oʻtib ketgani haqida murojaat qilgan edi. Nogiron farzandi bilan yolgʻiz yashayotgan fuqaro Madina Akramova esa uyi nurab, avariya holatiga kelib qolgani tufayli yordam soʻragandi. Xalq qabulxonasi bu masalalarni oʻz vaqtida tegishli tashkilotlar orqali hal qildi.

Mirzo Ulugʻbek tumani “Katta Qorasuv” MFYda 600 metr eskirgan quvur yangisiga almashirildi. Olmazor tumanidagi Achaobod mahallasi aholisi esa simyogʻoch va simlar yaroqsiz boʻlib qolganidan shikoyat qilgan edi. Ularning bu soʻrovi asosida eskilari mustahkam beton simyogʻochlarga, 1500 metr uzunlikdagi simlar kabellarga almashirildi. Shu tufayli ayni paytda mahalla aholisi elektr

taʼminotidagi uzilishlar bartaraf etilganidan mamnun. Shu tumandagi Guzarboshi mahallasi aholisini hududdagi ichki yoʻllar yaroqsizligi qiyinayotgandi. Bu masala ham qabulxona mutasaddilari tomonidan eʼtiborga olinib, 4 ming kvadrat metr yoʻl asfalt qilindi. Shuningdek, Bektemir tumani Chirchiq koʻchasida yashayotgan aholi bir necha yillardan buyon issiq suv quvurlari yaroqsizligidan shikoyat qilib keldi. Ularning muammosi tegishli idoralar tomonidan bartaraf etildi. Shu hududdagi koʻp qavatli yuning tom qismi butunlay yangilandi. Yunusobod tumani Halqabogʻ mahallasida joylashgan 532-maktabgacha taʼlim tashkiloti binosi taʼmirlandi.

Xalq qabulxonalari iqtisodiy va tibbiy jihatdan yordamga muhtoj fuqarolar murojaatlariga alohida eʼtibor qaratmoqda. Shayxontohur tumanidagi Eshonguzar mahallasida yashovchi 1-guruh nogironi Usmonali Qosimov hamda singlisi Hafiza Shamsutdinovaning tugʻma nogironligi va alohida parvarishga muhtojligi yuzasidan qilgan murojaatlari vaqtida hal etildi. Ular alohida tibbiy nazoratga olinib, homiyar tomonidan nogironlik aravachalari, davolanishi uchun tibbiy yoʻllanma hamda oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlandi. Shuningdek, ularga muntazam nafaqa ajratiladigan boʻldi.

Sergeli tumanida yashovchi Vladimir Neruskovga jarrohlik amaliyoti uchun “Saxovat va koʻmak” jamgʻarmasidan 45

Oʻtgan yili poytaxtimizning holati ogʻir, deb hisoblangan 42 ta hududida sayyor qabul va tibbiy koʻriklar tashkil etilib, qariyb 12,5 ming fuqaro tibbiy koʻrikdan oʻtkazildi. Natijada 5 mingdan ziyod bemorni davolatish uchun homiy tashkilotlar tomonidan 127 million soʻm mablagʻ ajratildi hamda 25 million soʻmlik dori-darmon tarqatildi.

million soʻm, Muhammad Ziyoviddinova uch yoshli farzandini davolatishi uchun 16 million 550 ming soʻm mablagʻ ajratildi.

Oʻtgan yili poytaxtimizning holati ogʻir, deb hisoblangan 42 ta hududida sayyor qabul va tibbiy koʻriklar tashkil etilib, qariyb 12,5 ming fuqaro tibbiy koʻrikdan oʻtkazildi. Natijada 5 mingdan ziyod bemorni davolatish uchun homiy tashkilotlar tomonidan 127 million soʻm mablagʻ ajratildi hamda 25 million soʻmlik dori-darmon tarqatildi. Shuningdek, 168 nafar fuqaro maxsus order bilan davolanish muassasalariga yuborildi.

Toshkent shahri Xalq qabulxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi ezuq tadbirlarga yana koʻplab misollar keltirish mumkin. Bunday xayrli amallardan maqsad xalqni rozi qilish. Shu bois, mavjud

har bir muammo yechimini topish uchun masʼuliyatni chuqur his qilib, omilkorlik bilan faoliyat yuritish talab etiladi. Buni yaxshi tushungan Xalq qabulxonalari mutasaddilari muammolar vujudga kelishini kutib oʻtirmay, oldini olish choralarni koʻrmoqda.

Bu boradagi ishlarimiz naqadar salmoqli boʻlmasin, hali mavjud imkoniyatlardan toʻla foydalanayapmiz, deya olmaymiz. Fuqarolar koʻtarayotgan masalalarni oʻrganish sohasidagi ishlar qoniqli emas. Chunki aholining turli masalalar yuzasidan takroriy murojaat qilishi holatlari kamaymayotgani shundan dalolat beradi. Toʻgʻri, Xalq qabulxonalari oldida turgan vazifalar koʻp va ularni hal etish uchun bir-biridan mushkul masalalarga yechim topish talab etiladi. Lekin bu fuqarolar soʻrovlarini hal etish





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 23-fevral, 39-son

Ma‘naviyat saboqlari

Jadidlar o‘giti:

“Sening uchun o‘lmoq
mening tirikligimdir”

Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyasi ma‘rifatparvarlikdir. Bu g‘oyalar yangi usuldagi maktablar tashkil etish va ular uchun darsliklar yaratishda yorqin aks etgan. Jadidlarning aksari G‘arb-u Sharqning ilg‘or mamlakatlarida ta‘lim olib kelgan taraqqiyparvar, ma‘rifatli ziyolilar bo‘lib, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy she‘riyati, o‘rta asrlarda yaratilgan falsafiy risolalarni o‘qigan va uqgan, bu bilimni jahon madaniyati yutuqlari bilan boyitgan insonlar edi.

Shahlo MINGBOYEVA,
Navoiy shahridagi 21-maktabgacha
ta‘lim tashkiloti direktori



Vatan ozodligini barcha narsadan ustun qo‘ygan adib Abduruf Fitratning “Turonim, sendan ayrilmoq — mening o‘limim. Sening uchun o‘lmoq mening tirikligimdir... Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman. Ey turklikning muqaddas o‘chog‘i! O‘lim sening o‘limingni istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga”, degan so‘zlari hech bir davrda ahamiyatini yo‘qotmaydi. “Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz”, deydi yana bir jadid bobomiz Abdulla Avloniy.

Abdurauf Fitrat “O‘qituvchilar yurtiga” she‘rida millatni zulmattan xalos bo‘lishga, ezigulik chorlaydi. Xalqni, millatni balo-qazolardan qutqaruvchi omil ilm, ma‘rifat ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, “O‘gut” she‘rida millatning yaqindan kuzatgan Cho‘lpon maqolaning ikkinchi qismini “Ay taraqqiyparvar yoshlar! Siz ham yozsangizlar, har vaqt bechora mazlum dehqonlarni puldordlardan, qullikdan qutuldurmoq choralari to‘g‘risinda yozinglar. Hammadan ul-bul kerak”, degan murojaat bilan yakunlaydi. Maqolaning uchinchi qismida adib xalqqa, yoshlarga qaratib bunday murojaat qiladi: “Yozayluc, qarindoshlar, ziroatdan! Yozayluc, qarindoshlar, iqtisoddan! Alar bo‘lsa, maktab ham bo‘lur, ilm ham bo‘lur. Dehqonlar boylar qo‘lidan, qullik — asirlikdan qutulsa, hammasi bo‘lur...”. Cho‘lpon ma‘rifatni taraqqiyotning birlamchi sharti sifatida tushungan bo‘lsa, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ilm-ma‘rifat ravnaqining asosi deb biladi. Mazkur mulohazalardan adibning millat qilib tarbiyalashda yo‘lchi yulduz vazifasini o‘taydi.

mashinalari foydalik ekan, ammo pul kerak, bizning qo‘limizda bo‘lsa, naqd tayyor pul yo‘qdur... Paxta eksak, g‘o‘zapoyasigacha, bug‘doy eksak, somonigacha qarzimiz badaliga so‘jayinlarimiz — boylarga olib borib beramiz...”. Dehqonlarning ahvolini yaqindan kuzatgan Cho‘lpon maqolaning ikkinchi qismini “Ay taraqqiyparvar yoshlar! Siz ham yozsangizlar, har vaqt bechora mazlum dehqonlarni puldordlardan, qullikdan qutuldurmoq choralari to‘g‘risinda yozinglar. Hammadan ul-bul kerak”, degan murojaat bilan yakunlaydi. Maqolaning uchinchi qismida adib xalqqa, yoshlarga qaratib bunday murojaat qiladi: “Yozayluc, qarindoshlar, ziroatdan! Yozayluc, qarindoshlar, iqtisoddan! Alar bo‘lsa, maktab ham bo‘lur, ilm ham bo‘lur. Dehqonlar boylar qo‘lidan, qullik — asirlikdan qutulsa, hammasi bo‘lur...”.

Cho‘lpon ma‘rifatni taraqqiyotning birlamchi sharti sifatida tushungan bo‘lsa, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ilm-ma‘rifat ravnaqining asosi deb biladi. Mazkur mulohazalardan adibning millat qilib tarbiyalashda yo‘lchi yulduz vazifasini o‘taydi.

kurashgani ko‘rinadi. Zero, ilm-ma‘rifat xalqni orzu-intilishlariga, maqsadlariga eltuvchi oydin yo‘ldir.

Ma‘rifatparvar ajdodlarimizning tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ibratli faoliyatini, qadr-qimmatini va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar, xalqaro tashkilotlar hamda taniqli xorijlik olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish ustuvor vazifamiz bo‘lishi lozim. “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li — ma‘rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrjiiy asosda tubdan isloh qilish uchun g‘oyaviy va amaliy harakat qildi, milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi. O‘sha davrdagi vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug‘vor maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yo‘l bermas edi.

Millatning qadri mansab-u martaba, salobatu hashamat, hatto soha va kasb tanlamaslik bilan o‘lchannmog‘i lozim. Fikrimizga Hazrat Navoiyning ilm va olim haqidagi hikmatlarida so‘z yuritilgan uch toifa haqidagi mulohazasi bilan dalil keltiramiz. Unga ko‘ra, birinchi toifadagi olim o‘z ilmidan dunyoviy farovonlik, martaba uchun foydalanadi. Bu toifaning eng tuban darajasi ilmiy “vositai joh” etishgacha boradi. Ikkinchi toifa ilmiy faqat ilm uchun qiladi. Uni chuqur o‘rganadi, olimlikning yuksak maqomlari tomon intiladi, xolos. Niyatiga ham yetadi, ammo undan birovga foyda yemaydi. Uchinchi toifa ilmiy xalqi va oxirati uchun o‘rganadi. Kasbi kamolga yetganida undan xalq va millat bahramand bo‘ladi. Navoiy “Odami ersang, demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidani g‘ami”, deb bejiz yozmagan edi.

Shunday ulug‘vor tariximizni o‘rganish har birimizni ma‘naviy uyg‘oqlik va ogohlikka chorlab, qalblarimizda ulug‘ ajdodlarimizga xos asruv shijoatni yuksaltirishda, farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiq insonlar qilib tarbiyalashda yo‘lchi yulduz vazifasini o‘taydi.

Nuqtayi nazar

OLIIY TA‘LIMNING
JAMIYATDAGI MAS‘ULIYATI
QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning pedagoglar oylik maoshini, jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularni ijtimoiy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘z vaqtidagi muhim qarorlari tizimdan yosh olimlar chiqib ketishini to‘xtatdi, oliy ta‘lim jamoalarida sohaning rivojlanishiga ishonchni mustahkamladi.

Yig‘ilishda ilgari surilgan g‘oyalar oliy ta‘lim muassasalaridan postindustrial jamiyat so‘rovlariga javob beradigan istiqbolli ta‘lim tizimini yaratish, raqobatbardosh kadr va mutaxassislarni tayyorlash kabi vazifalardan tashqari jamiyatdagi intellektual salohiyatni yuzaga chiqaruvchi — ma‘rifat drayveri bo‘lishni talab etadi, ularga ijtimoiy mas‘uliyat yuklaydi.

Bugun zamonaviy universitet kadrlarni professional darajada tayyorlash, ilmiy tadqiqot olib borish bilangina chegaralanib, rivojlana olmasligi muqarrar. Jahon informatsion va g‘oyaviy makonlarida aholi, ayniqsa, yoshlarga o‘tkazilayotgan ta‘sir va tazyiqning mazmun va shakllanishiga qarshi adekvat fikrlaydigan, milliy o‘zligini anglaydigan, maqsad va kelajagini to‘g‘ri tasavvur etadigan avlod tarbiyasiga daxldorligi va bu yo‘nalishdagi faoliyati oliy ta‘limning uchinchi muhim missiyasi bo‘lib oldinga chiqadi.

Universitetlar jamiyatda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta‘sir o‘tkazishi kerak, bu — tan olinayotgan konsepsiya. OTMlarning professional kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasa ekanidan tashqari, o‘zi joylashgan hududning madaniyatiga ta‘sir o‘tkazuvchi ma‘naviyat va ma‘rifat, tarbiya maskani sifatidagi roli ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib boradi.

Oliy ta‘lim muassasalari hozir hududlarda ijtimoiy hamkorlik doirasida amaliy ishlar olib bormoqda. Jumladan, maktablar bilan birga loyihalar, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarga metodik yordam, o‘quvchilarni kasbiy yo‘naltirish, o‘quv fanlari bo‘yicha maktablarda mahorat darslari



Inom MAJIDOV,
texnika fanlari doktori, professor

tashkil etyapti. Universitetning mahallalar bilan hamkorlikdagi ishlari, mahalla yoshlari ishtirokidagi ma‘naviy-ma‘rifiy, sport yo‘nalishlaridagi tadbirlar, mahalla yoshlarining oliy o‘quv yurtiga tashriflari uyushtirilmoqda. Bundan tashqari, turizm sohasida hududlar bilan hamkorlikdagi loyihalar, kasbga o‘rgatish o‘quv kurslari va boshqa qator tashabbuslarni ijtimoiy hamkorlik namunalarini sifatida aytish mumkin.

O‘zbekiston Milliy universitetida bir necha yo‘nalishdagi ijtimoiy hamkorlik ishlari qatorida “Amaliy etnologiya” laboratoriyasi tashkil etilib, tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning natijalari xalqaro va mahalliy jurnallardagi ilmiy maqolalarda, OAVlarda, o‘quv-ilmiy adabiyotlarda, ilmiy ishlarda xulosa va tavsiyalar tarzida o‘z aksini topmoqda.

Mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda Ijtimoiy ish kafedrasining maktablarda psixologik muhitni tadqiq etish, sotsiologik so‘rovlar natijalari tahlili bo‘yicha amalga oshirgan loyiha va tashabbuslarini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. O‘quvchilar uchun psixologik, motivatsion treninglar, kelajak maqsadlarni aniqlashga ko‘maklashuvchi amaliy mashg‘ulotlar olib borilmoqda.

Biologiya va ekologiya fakultetlarining tashabbuskor talaba yoshlari va professor-o‘qituvchilari tomonidan Mo‘ynoq tumanidagi Orol dengizi bo‘yi va qurigan hududida universitetning 1,3 gektar maydonga ega o‘quv-ilmiy poligonlari tashkil etildi. O‘simliklar ekilib, Qoraqalpog‘ davlat universiteti bilan hamkorlikda ularni tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirish tadqiqotlari olib borilmoqda. Bu kabi tashabbuslar Innovatsion rivojlanish agentligi, tegishli tashkilotlar tomonidan ilmiy loyihalar e‘lon qilish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlangan, yanada ko‘proq samara beradi.

Muhimi, ijtimoiy hamkorlik loyihalari universitetimizga o‘quv dasturlarini boyitish, hududiy, sohaviy muammolarga bog‘lash, amaliyotlarni mazmunli va samarali tashkil etishga ham zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, universitetlarning ijtimoiy hamkorlik sohasidagi faoliyati jamiyatdagi dolzarb masalalarga yanada kengroq kirib borishni, ayniqsa, mavjud ilmiy, intellektual, madaniy-ma‘rifiy salohiyatni safarbar etishni talab etadi.

Universitet ijtimoiy mas‘uliyati, deganda, birinchi o‘rinda, ta‘lim muassasasining jamiyat oldidagi mas‘uliyatini tushunish kerak. Buning uchun universitet ma‘naviyat, ilm, ta‘lim, madaniyat va ma‘rifat o‘chog‘i bo‘lish bilan birga, ijtimoiy hamkorlar bilan bir necha vazifalarni amalga oshirishi zarur.

Avvalo, jamiyatdagi orzu-umidlar, intilishlarni, o‘zgarishlar va ijtimoiy jarayonlarni, yoshlarning qiziqish va maqsadlarini ilmiy izlanishlar, sotsiologik o‘rganishlar vositasida tahlil qilib borish kerak.

Aholining turli qatlami, jumladan, yoshlar o‘rtasidagi hududiy-ijtimoiy masalalar bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar, xulosalar, aniq yechimlar va tahliliy materiallar tayyorlash, universitet bilan birga amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish lozim.

Hudud va shaharlarni rivojlantirish strategiyalariga hissa qo‘shish, aholining huquqiy ongi, bilimni oshirish, ijtimoiy va madaniy muhitga ijobiy ta‘sir etish, yoshlarni ilimga qiziqitirish, tadbirkorlikka o‘qitish masalalarida mahalliy boshqaruv organlari, tashkilot va muassasalar, ish beruvchi korxonalar bilan hamkorlikda aniq loyihalarini amalga oshirish, shahar va hududlarni ekologik rivojlantirish bo‘yicha loyihalar, ilmiy ekspertizalar tayyorlash maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan baholalarni tizimlashtirish uchun oliy o‘quv yurtlarining ijtimoiy mas‘uliyatini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etiladi. Bu ta‘lim muassasasining amaliy hamkorlarini belgilab olish imkonini beradi, shuningdek, uzoq muddatli ijtimoiy hamkorlikka asos yaratadi.

Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlariga inson resurslarini rivojlantirishning poydevori, katta hayotga qadam qo‘ygan yoshlarning bilimi, dunyoqarashi, ma‘naviyati, vatanparvarligini shakllantiruvchi ma‘rifat maskani sifatida jiddiy e‘tibor qaratilib, qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Eng muhimi, ta‘lim, ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalari jamoalari uchun o‘qitish sifati bilan bir qatorda iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash, jamiyatning ijtimoiy hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish masalalarini yuqori malakali, vatanparvar kadrlar tayyorlashning eng asosiy vazifalari sifatida qabul qilinishi zarur.

Xalqaro hamkorlik

Xalqaro hamkorlik oliy ta‘lim muassasasining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, jahon ta‘lim tizimiga integratsiyalashuvni ta‘minlash, ta‘lim, ilmiy, iqtisodiy faoliyat doirasini kengaytirish uchun zamonaviy shart-sharoit va normativ bazani yaratishga munosib xizmat qilmoqda.



Umid TURDIALIYEV,
texnika fanlari doktori

Andijon mashinasozlik instituti misolida oladigan bo‘lsak, ayni paytda mazkur muassasa Turkiya, Italiya, Germaniya, Portugaliya, Belgiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Rossiya, Belarus singari davlatlardagi

80 dan ortiq oliy ta‘lim muassasasi bilan hamkorlik o‘rnatgan. Ayniqsa, Belarus va Xitoy Xalq Respublikasining qator nufuzli oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda.

Institut 2018-yilda Shimoliy Xitoy texnologiyalar universiteti bilan almashinuv dasturlarini amalga oshirish, hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlari olib borish hamda ilmiy loyihalar tayyorlash bo‘yicha memorandum imzolagan. Unga asosan, 2019-yilda mashinasozlik texnologiyasi, mexatronika va robototexnika, sun‘iy intellektual tizimlar va elektron axborot muhandisligi ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriaturada “2+2”, “3+1”, magistraturada “1+1” modellari asosida qo‘shma ta‘lim dasturi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur qo‘shma ta‘lim dasturi doirasida o‘tgan o‘quv yilida uch nafar magistr va o‘n to‘qqiz nafar bakalavr tayyorlanib, ularga ikki tomonlama diplom berildi. Bundan tashqari, besh yil davomida birgalikda ilmiy sohada ham davlat grantlari qo‘lga kiritildi, elektrotexnika va robototexnika yo‘nalishlari bo‘yicha samarali loyihalar amalga oshirildi, institutning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi.

Kelgusida universitet bilan hamkorlikda Andijonda quyosh elementlari, suv va shamol generatorlaridan olinayotgan elektr energiyasini iste‘molga tatbiq qilish jarayonida energiya



samaradorligini doimiy ravishda ko‘tarib borish uchun kerak bo‘ladigan maxsus SVG qurilmasini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

Institutimiz, shuningdek, Pekin texnologiyalar universiteti va Nankin politexnika instituti bilan ham mustahkam hamkorlik o‘rnatgan. O‘tgan ikki yil davomida kadrlar tayyorlash salohiyatini yanada oshirish maqsadida ilmiy-pedagogik xodimlar stajirovka o‘tadi. Bundan tashqari, ikki tomonlama akademik harakatchanlikni rivojlantirish maqsadida aspirantlar, magistrantlar va

talabalar almashinuvi, turli loyihalar amalga oshirildi.

Misol uchun, institut qoshida Nankin politexnika instituti bilan hamkorlikda Xitoy tilini o‘rganish va “Yong Li” texnik markazlari tashkil etilib, Luban ustaxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan bu kabi ishlar ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quv jarayoniga xalqaro me‘yor va talablarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish natijasida institutning ilmiy salohiyati so‘nggi 5 yilda 18 foizdan 40 foizga yetkazildi.

EHTIYOJ YUQORI KASBLARGA MUTAXASSIS
TAYYORLAYDIGAN MUHIT ZARUR

Mamlakatimiz kelajagini yetuk yosh avlod barpo etadi. Demak, ularga daraj berayotgan mutaxassislar kuchi salohiyatga ega bo‘lishi kerak. Bugun institutda faoliyat olib borayotgan 300 dan ortiq professor-o‘qituvchining 19 nafari fan doktori, 92 nafari esa fan nomzodi. Shuningdek, doktoranturada 23 ixtisoslik bo‘yicha jami 156 nafar doktorant, tayanch doktorant va maqsadli izlanuvchilar ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda.

O‘tgan yili jami qiymati bir milliard so‘mlikdan ortiq uchta davlat ilmiy texnika dasturi doirasidagi ilmiy loyihalar amalga oshirildi. Ushbu mablag‘ hisobiga ikkita ilmiy laboratoriya tashkil etildi. 11 ta patent, 83 ta dasturiy ta‘minot uchun guvohnoma olishga erishildi.

Shuningdek, Prezidentimizning yaqinda Andijon viloyatiga tashrifida berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida institut qoshida Muhandislar maktabi tashkil qilinadigan bo‘ldi. Uning tashkiliy tuzilmasi va faoliyatini zamonga mos ravishda olib boramiz va yetuk kadrlar tayyorlashda uning o‘mini oshiramiz.

Albatta, islohotlarning ijobiy samaralari kishini quvontiradi, biroq bu xotirjamlikka asos bo‘la olmaydi. Chunki hali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar talaygina.

Ma‘lumki, joriy yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari Oliy ta‘lim,

fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga ham to‘xtalar ekan, yutuqlar bilan birga, kamchilik va majburiyatlarni taklif. Nafaqat ta‘lim-tarbiya sifatini oshirish, balki dunyoning eng rivojlangan ta‘lim muassasalari tajribasining milliy o‘qitish tizimimiz qadriyatlariga xos jihatlarni olib takomillashtirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

Bu borada ilgari surilgan dolzarb vazifalar va ularning ijrosini bajarish hamda salohiyatimizni ko‘rsatish bo‘yicha jamoamiz bilan birgalikda o‘sha kundanoq qat‘iy yo‘limizni belgilab oldik. Ishonch bilan ayta olamizki, pedagoglar, xususan, institutimiz pedagogik jamoasi ana shu vazifalarni sidqidildan ado etish uchun bor bilim va imkoniyatini ishga soladi.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05